

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti To'rtko'l fakulteti talabasi

Allamov Javohir Muxiddin o'g'li

Karimova Shaxnoza Uktamovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Assistenti

K_shaxnoza@tsue.uz allamov191@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, axborot texnologiyalari va blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi hamda xalqaro hamkorlik masalalari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyotning mamlakat taraqqiyotidagi o'rnini, uni rivojlantirishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik, kichik biznes, axborot texnologiyalari, blokcheyn, innovatsiya, kriptoaaktivlar, axborot xavfsizligi, Prezident farmonlari, raqamlashtirish.

Kirish; Zamonaviy jamiyatda raqamli iqtisodiyotning roli kundan-kunga kengayapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar natijasida 2020 yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi. Bu esa mamlakatda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va tadbirkorlikni raqamlashtirishga zamin yaratdi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot asosida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida yoshlarni bilimli va raqobatbardosh etib tarbiyalash, zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirishga urg'u berilgan. 2018 yilda qabul qilingan qarorlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, axborot

texnologiyalarini keng joriy etish va axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur hujjatlar asosida blokcheyn texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish belgilangan. Shuningdek, innovatsion g'oyalar asosida ishlab chiqarish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiy faoliyatga tadbiq qilish, davlat organlari va xususiy sektor o'rtasidagi yaqin hamkorlikni kuchaytirish raqamli iqtisodiyotning asosiy vazifalaridandir. Blokcheyn texnologiyasi va kriptoaaktivlar sohasida xalqaro tajribani jalb qilish, xorijlik yuqori malakali mutaxassislar bilan ishlash zamonaviy raqamli infratuzilmani shakllantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar orqali moliyaviy operatsiyalarni tez, xavfsiz va shaffof tarzda amalga oshirish imkoniyati yaratadi. Ayniqsa, biznes jarayonlarida smart-kontraktlar joriy etilishi orqali tadbirkorlikda ishonch va avtomatlashtirish darajasi ortadi. Blokcheyn texnologiyasi va kriptoaaktivlar sohasida xalqaro tajribani jalb qilish, xorijlik yuqori malakali mutaxassislar bilan ishlash zamonaviy raqamli infratuzilmani shakllantirishga xizmat qiladi.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilm-fanga Manuel Kastels tomonidan olib kirilgan bo'lib, u axborotlashgan jamiyatni, iqtisodiy va madaniy hayotda raqamli texnologiyalarning o'rnini tahlil qilgan

Raqamli iqtisodiyot – bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi iqtisodiy tizim bo'lib, unda internet, sun'iy intellekt, mobil ilovalar, bulutli texnologiyalar va katta hajmdagi ma'lumotlardan samarali foydalaniladi. An'anaviy iqtisodiyotdan farqli ravishda, raqamli iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo-sotiq jarayonlari raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa tezkorlik, qulaylik va samaradorlikni oshirish bilan birga, yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlariga elektron savdo (e-commerce), moliyaviy texnologiyalar (fintech), raqamli ta'lim (edtech), elektron hukumat xizmatlari (e-government), tibbiyot, transport va qishloq xo'jaligida raqamli echimlardan foydalanish kiradi. U global iqtisodiy raqobatni kuchaytiradi, bozorlarning ochiqligini ta'minlaydi va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi axborot xavfsizligi, raqamli tafovut, mehnat bozori transformatsiyasi va raqamli savodsizlik kabi

muammolarni ham yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga katta e'tibor qaratgan. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, elektron to'lov tizimlari, IT-parklar faoliyati, startap loyihalarning qo'llab-quvvatlanishi va aholining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha muhim qadamlar tashlaydi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta shakllantirish va uni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Raqamli iqtisodiyot nafaqat texnologik yutuqlar, balki iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikning kaliti hisoblanadi. O'zbekistonda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar kichik biznes va tadbirkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Kelgusida innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik va raqamli savodxonlikni oshirish orqali bu sohaga yanada keng yo'l ochilishi kutilmoqda. O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa axborot texnologiyalari va blokcheyn asosida olib borilayotgan chora-tadbirlar ijobiy natija beradi.

Ushbu izlanish natijasida shu takliflarni beraman:

1. Blokcheyn texnologiyalarini davlat xizmatlariga bosqichma-bosqich tatbiq etish uchun yagona strategiya ishlab chiqilishi lozim.
2. Tadbirkorlar uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil qilish va bepul onlayn platformalar yaratish zarur.
3. Raqamli iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritayotgan startaplarga soliq imtiyozlari va grantlar ajratish mexanizmini kengaytirish kerak.
4. Xalqaro ekspertlar ishtirokida blokcheyn, sun'iy intellekt va raqamli xavfsizlik bo'yicha ilmiy-amaliy markazlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.
5. Mahalliy kriptoaktivlar bozori faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish zarur.

Ushbu soha nafaqat texnologik yangilanish, balki iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy shaffoflik va innovatsion muhitni kuchaytirishda muhim rol o'ynamoqda. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, xalqaro tajribaning o'zlashtirilishi va kadrlar tayyorlash siyosati – iqtisodiyotda yangi bosqichni boshlab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli Qarori.
4. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 avgustdagi raqamli iqtisodiyot bo'yicha qarori.
5. Kastels, M. "Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat", 3 jildli monografiya.
6. Toirov U., Abdurahmonov Q. *Axborot texnologiyalari va tizimlari*. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
7. Soliyev A.X., Karimov A.A. *Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va rivojlanish istiqbollari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
8. UNESCO. *ICT in Education: A Curriculum for Schools and Programme of Teacher Development*. – Paris: UNESCO, 2011.